



**KONSTITUTSIYA - MAMLAKATIMIZDA AMALGA
OSHIRILAYOTGAN DEMOKRATIK YANGILANISHLAR POYDEVORI**

G'aniyeva Mohitabon Hasanovna

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro huquq fakulteti
1-kurs talabasi*

mohitabonganiyeva@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, davlat suvereniteti, demokratiya, konstitutsiya va qonunning ustunligi, ijtimoiy adolat tamoyillari, inson, uning erkinligi, shaxsiy huquqlari, fuqarolik huquqlari, adolatli va barqaror jamiyatni barpo etish yo'lidagi yuksak mas'uliyat hamda konstitutsiyamizning bugungi jamiyatdagi poydevor ekanligiga bag'ishlanadi.*

Kalit so'zlar: *Konstitutsiya, demokratiya, suverenitet, qonun, huquq, burch, adolat, qadr-qimmat, jamiyat*

**КОНСТИТУЦИЯ-ФУНДАМЕНТ ДЕМОКРАТИЧЕСКИХ
ОБНОВЛЕНИЙ, ОСУЩЕСТВЛЯЕМЫХ В НАШЕЙ СТРАНЕ**

Ганиева Мохитабон Хасановна

*Студент 1-го курса факультета международного права Университета
мировой экономики и дипломатии*

mohitabonganiyeva@gmail.com

Аннотация: *Данная статья посвящена принятию Конституции Республики Узбекистан, национальным и общечеловеческим ценностям, государственному суверенитету, демократии, верховенству Конституции и закона, принципам социальной справедливости, человеку, его свободе, правам личности, гражданским правам, высокой ответственности за построение справедливого и стабильного общества, а также тому, что наша Конституция является фундаментом современного общества*

Ключевые слова: *Конституция, демократия, суверенитет, закон, право, долг, справедливость, достоинство, общество*



**CONSTITUTION-FOUNDATION OF DEMOCRATIC UPDATES
CARRIED OUT IN OUR COUNTRY**

Ganieva Mohitabon Hasanovna

*1st year Student, Faculty of International Law, University of world
economy and diplomacy*

mohitabonganiyeva@gmail.com

Abstract: *This article will focus on the adoption of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, national and universal values, state sovereignty, democracy, the supremacy of the Constitution and law, the principles of social justice, the high responsibility of a person, his freedom, personal rights, civil rights, for the establishment of a fair and sustainable society and the fact that our Constitution*

Keywords: *Constitution, democracy, sovereignty, law, duty, Justice, Destiny, society*

KIRISH

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng qabul qilingan Konstitutsiya milliy qadriyatlarimiz asrash, adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish, demokratik va huquqiy davlat barpo etish, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish yo'lini aniq belgilab berdi. Konstitutsiya-yurtimizning huquqiy tizimi poydevori bo'lib, barcha qonun va me'yoriy hujjatlar aynan undan ilhom oladi. Bugungi kungacha qabul qilingan qonunlarimiz Konstitutsiyamizda ifodalangan zamonaviy tamoyillar asosida ishlab chiqilgan. Konstitutsiyaning kirish qismida O'zbekiston xalqi inson huquqlari va davlat suvereniteti g'oyalariga sadoqatni e'tirof etadi. Shuningdek, xalqimiz milliy qadriyatlarga, xalqaro huquq normalariga tayangan holda insonparvar va demokratik jamiyat qurishdek ulkan maqsadni ko'zlaganini ta'kidlaydi. Haqiqatan ham, mustaqillik tufayli yaratilgan Bosh qonunimiz bizga tilimiz, dinimiz, tariximiz, ma'naviyatimiz va hokimiyatni amalga oshirishda fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlovchi siyosiy qadriyatimiz mustahkamladi.

ADABIYOTLAR VA METODLAR TAHLILI

Ushbu maqolani yozish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi sharhi, Ta'lim to'g'risidagi qonun, ilmiy maqolalar va publistik materiallar, yuridik adabiyotlar, SH.Mirziyoyev asarlari hamda internet manbalaridan foydalanildi. Maqolani yozish davomida nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillari qo'llanildi.





MUHOKAMA VA NATIJALAR

Konstitutsiyamizning muqaddima qismida O'zbekistonning barqaror rivojlanish tamoyillari, inson huquq va erkinliklari, xalqimizning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligi, demokratiya, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalari, adolatli va mustaqil jamiyat qurishda hozirgi va kelajak avlod oldidagi yuksak mas'uliyat hissi, davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasi, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan norma va prinsiplariga sodiqlik, O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan munosabatlarini tinchlik, hamkorlik va do'stona aloqalar yordamida mustahkamlash hamda rivojlantirish, xalqimizning tinch-totuv hayot kechirishi, boshqa millatlar va konfessiyalar bilan munosabatlarni yaxshilash, O'zbekistonning kelajakdagi farovonligi va rivojlanish yo'llarini ta'minlagan holda barqaror rivojlanish prinsiplari aks etgan.

Konstitutsiyamizning birinchi bobi davlat suverenitetiga oid munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni o'z ichiga oladi. Binobarin, 1-moddada "O'zbekiston-boshqaruvning Respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat", deyiladi. Ushbu moddadagi har bir atamani tahlil qiladigan bo'lsak, suveren- ichki va tashqi siyosatini mustaqil belgilaydigan, boshqa davlatlarga bo'ysunmaydigan davlat, demokratik- xalq hokimiyati ustuvor bo'lgan, fuqarolar saylov orqali hokimiyatni shakllantiradigan va erkin fikr bildirish huquqiga ega bo'lgan davlat, huquqiy- qonun ustuvor bo'lgan, barcha fuqarolar va amaldorlar, hatto davlat organlari ham qonungan bo'ysunadigan davlat, ijtimoiy- fuqarolarning farovonligi uchun javobgar, aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlaydigan davlat, dunyoviy- din davlatdan ajratilgan, ya'ni hech qaysi bir din davlat siyosatiga ta'sir qilmaydi va hech qaysi bir diniy aqida majburan singdirilmaydigan davlat. Ko'rib turganingizdek, Konstitutsiyamizning birinchi moddasida davlatchiligimizning asosiy tamoyillari aks ettirilgan.

Bundan tashqari ushbu bobda davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldidagi mas'uliyati, O'zbekistonning milliy-davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishi, davlat tili, millat va elatlarning urf-odatlar, tillari, an'alarining hurmat qilish hamda O'zbekistonning qonun bilan tasdiqlangan o'z davlat ramzlariga ega ekanligi haqida so'z boradi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ushbu bobda davlat suverenitetining asosiy prinsiplari hamda demokratik va adolatli jamiyatimizning muhim qadriyatlari namoyon qilingan.

Konstitutsiyamizning ikkinchi bobi xalq hokimiyatchiligiga bag'ishlangan bo'lib, demokratik tamoyillarga oid bir qancha normalarni o'z ichiga oladi. Ushbu bobning 7-moddasida "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir", deb ta'kidlangan. Bu degani, mamlakatdagi oliy hokimiyat egasi O'zbekiston xalqidir. Yurtimizda





davlat hokimiyati faqat xalq manfaatlarini ko'zlab, Konstitutsiya va qonunlar bilan belgilangan vakolatlarga ega bo'lgan idoralar orqali amalga oshiriladi. Davlat nomidan faqat xalq tomonidan saylab qo'yilgan Oliy Majlis va Prezident faoliyat yuritishi mumkin. Shuningdek, ushbu bobning 11-moddasida "O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi — hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi", deyilgan. Endi buni tahlil qiladigan bo'lsak, O'zbekistonda davlat boshqaruv tizimi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlarining alohida faoliyat yuritishi tamoyiliga asoslangan. Ya'ni ular bir-birining faoliyatiga aralashmasdan, bir-biridan mustaqil holda, davlat boshqaruvida adolat, muvozanat va qonun ustuvorligini ta'minlagan holda boshqaruvni amalga oshirishadi.

Konstitutsiyamizning uchinchi bobi haqida so'z yuritar ekanmiz, ushbu bobda Konstitutsiya va qonunning ustunligi hamda Konstitutsiyamizning oliy yuridik kuchga ega ekanligi aytib o'tilgan. Konstitutsiya- davlatning asosiy qonuni bo'lib, u jamiyat va davlat hayotining muhim jabhalari bo'lgan davlat tuzilishi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, hokimiyat tarmoqlari o'rtasidagi munosabatlar, qonun chiqarish va uni ijro etish tartibi belgilab beriladi. Qonun ustunligi - barcha fuqarolar, tashkilotlar va davlat organlari ham qonunga bo'ysunishi shart degan ma'noni anglatadi. Ya'ni hech bir shaxs yoki davlat organi qonundan yuqori emas, har qanday qaror, harakat yoki qonun qonunga zid bo'lmasligi kerak. Agarda biror bir qaror yoki qonun hujjati qonunga zid bo'lsa, uni bekor qilish yoki qayta ko'rib chiqish huquqi Konstitutsiyaviy sud yoki qonun vakolat bergan boshqa davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, Konstitutsiya fuqarolarning huquqlarini himoya qiladi hamda qonunning ustunligi fuqarolarga erkin fikrlash, so'z erkinligi va shu kabi bir qator huquq va erkinliklar taqdim qiladi. Qonun ustun bo'lmagan joyda demokratik davlat qurib bo'lmaydi. Ushbu prinsip orqali huquqiy davlat shakllanadi va jamiyat adolatli yo'ldan rivojlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinchi bo'limi "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" deb nomlanadi. Ushbu bo'lim fuqarolarning shaxsiy, fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijyimoiy, madaniy va ekologik huquqlari, shuningdek, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlari hamda fuqarolarning burchlarini o'z ichiga oladi. Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan fuqarolarning ushbu huquq va erkinliklar, burchlari har bir insonning shaxs sifatida jamiyatda to'laqonli hayot kechirishini ta'minlashga qaratilgan. Mazkur bo'limda xalqaro inson huquqlari normalariga asoslangan tamoyillar ham o'z ifodasini topgan. Endi fuqarolarning har bir huquqlari haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, fuqaro shaxsiy huquqqa ega bo'lar ekan yashash, erkinlik, daxlsizlik





huquqiga ega hamda uni qiynoqqa solish, inson sha'nini kamsitish qat'iyman etiladi. Fuqarolik huquqlari har bir shaxsga qonun oldida tenglik, o'z millatini, dinini erkin tanlash hamda vijdon erkinligiga ega bo'lish huquqini beradi. Bundan tashqari, siyosiy huquqlar orqali fuqarolar saylash va saylanish, siyosiy partiyalarga a'zolik, miting va yig'ilishlarda qatnashish huquqlari, so'z erkinligi, va ommaviy axborot vositalarida fikr bildirish kabi bir qancha huquqlarini amalga oshira oladi. Madaniy huquqlar esa insonlarga ilm-fan, madaniyat va san'atdan bahramand bo'lish hamda har kimga o'z intellektual mulkini himoya qilish imkoniyatini beradi. Har bir shaxs huquq va erkinliklarga ega bo'lish bilan bir qatorda burchlarga ham ega. Har bir fuqaro qonunlarga rioya qilish, boshqa insonlarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini ado etishi shart. Mudofaa qilish, soliqlar to'lash, tarixiy va madaniy merosni asrash – asosiy burchlardan hisoblanadi. Shunday qilib, Konstitutsiyamizning ikkinchi bo'limi insonparvarlik tamoyillariga asoslangan bo'lib, fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlarni belgilaydi. Bu bo'lim orqali O'zbekiston Respublikasi har bir insonning sha'ni, qadr-qimmati va erkin yashash huquqini tan oladi hamda uni qonuniy jihatdan himoya qiladi. O'zbekiston Respublikasida yashovchi har bir fuqaro, u qaysi millat, irq, jins, til yoki e'tiqodga mansub ekanligidan qat'i nazar, teng huquqlarga ega. Konstitutsiyada belgilanganidek, insonning ijtimoiy kelib chiqishi, diniy qarashlari, lavozimi yoki moddiy holatidan qat'i nazar, ularning barchasi qonun oldida teng hisoblanadi. Bu tamoyil nafaqat davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri, balki demokratik jamiyat qurilishining poydevoridir.

Har bir fuqaro qonunlarga bo'ysunishi, o'z burchlarini ado etishi kerak. Yosh-u qari, oddiy fuqaro bo'ladimi yoki yuqori lavozimli shaxs bo'ladimi – hech kim qonundan ustun emas. Bu prinsip fuqarolik tengligining amaliy ifodasidir. Davlat boshqaruv organlari, mansabdor shaxslar, jamoat tashkilotlari va har bir fuqaro o'z faoliyatida Konstitutsiyaga va mavjud qonunlarga bo'ysunib, qat'iy rioya qilib yashashi shart. O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplarini tan oladi va ularga amal qiladi. Bu esa mamlakatning global huquqiy hamjamiyatdagi faol ishtirokini va ochiqqligini bildiradi. Har qanday me'yoriy-huquqiy hujjat yoki qonun Konstitutsiyaga zid bo'lishi mumkin emas. Aks holda, u huquqiy kuchga ega bo'lmaydi. Huquqiy demokratik davlat barpo etish uchun eng muhim shartlardan biri – bu har bir insonning shaxsiy erkinligi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishdir. Shuning uchun ham Konstitutsiyamizda inson huquqlari oliy qadriyat sifatida e'tibor qilingan. Unda inson hayoti, sha'ni, erki va qadr-qimmati alohida e'tibor bilan ta'kidlangan. Zero, davlat o'z fuqarolarini himoya qila olmasa, u chin ma'nodagi huquqiy davlat sifatida shakllana olmaydi.





Amaldagi qonun hujjatlari inson huquqlari bo'yicha BMT deklaratsiyasi va boshqa xalqaro konvensiyalarga muvofiq ishlab chiqilgan. Bu esa O'zbekistonning inson huquqlarini himoya qilish borasida global tamoyillarga sodiqligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shu nuqtai nazardan yondashganda, mamlakatimizning asosiy maqsadi "O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlar orqali o'z ifodasini topmoqda. Xususan, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli tarzda himoya qilish kafolatlarini yaratish, sud-huquq tizimida qonun ustuvorligini kuchaytirish, yuridik xizmatlar ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish, aholini ish bilan ta'minlash va ularning real daromadlarini barqaror oshirish, sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirish, ayollarning jamiyatdagi faolligini kuchaytirish hamda arzon uy-joylar qurilishini kengaytirish kabi masalalar inson hayotining farovonligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bu jarayonda "O'zbekiston-2030 strategiyasi"dan – "taraqqiyot sari barqaror qadam" tamoyili asosida "Inson – jamiyat – davlat" degan yangi yondashuv amaliyotga joriy etilmoqda.

Konstitutsiyaning hayotimizdagi o'rni va roli juda muhim. Rivojlangan demokratiya yo'lidan borayotgan mamlakatlarda har bir fuqaro o'z ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarini, o'z huquq va erkinliklarini Konstitutsiyasiz tasavvur qila olmaydi. Biz ham kundalik hayotimizda Konstitutsiyada belgilangan normalarga ko'p bora murojaat qilamiz, chunki faqat Qomusimizda inson huquqlari va erkinliklari ishonchli kafolatlangan. Shuning uchun ham Konstitutsiyaviy bilimlarni chuqur o'rganish, uni tushunish va unga hurmat bilan yondashish har birimiz uchun muhim vazifadir.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

<https://constitution.uz/oz/clauseКонституция> [Узбекистана+1Конституция](#)
[Узбекистана+1](#)

2. "Konstitutsiyaviy huquq" darsligi

<https://akbt.tkti.uz/uz/books/20757akbt.tkti.uz+1> «Kitoblar Dunyosi»+1

3. "Konstitutsiyaviy huquq" darsligi

<https://hilolnashr.uz/konstitutsiyavi-huquq> «Kitoblar Dunyosi»

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi rasmiy veb-sayti

<https://parliament.gov.uz>





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti

<https://president.uz>

6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining rasmiy veb-sayti

<https://senat.uz>

7. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portal

<https://gov.uz> Конституция Узбекистана

8. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi rasmiy veb-sayti

<https://prokuratura.uz>

9. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rasmiy veb-sayti

<https://supcourt.uz>

10. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy veb-sayti

<https://minjust.uz>